UDK: 902/904:666.1(575.11)(091)

SHAXRIXON VA CHUST MILLIY PICHOQLARINING O'ZIGA XOSLIGI, TURLARI

***Maxmudov Abduqaxxor**, dotsent,*
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi,
E-mail: abduqahhormahmudov3110@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Chust va Shahrixon pichoqchilik maktablariga xos bo'lgan milliy pichoqlarning turlari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Unda har ikki hudud ustalari tomonidan tayyorlanadigan pichoqlarning shakli, tig' tuzilishi va bezak uslublari tahlil qilinadi. Chust pichoqlarining o'tkirligi va soddaligi, Shahrixon pichoqlarining esa bezakdorligi va mustahkamligi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, tig'ni toblash, charxlash va dastani bezash jarayonlari bayon etiladi. Maqolada pichoqlarning maishiy hamda sovg'abop turlari ham ko'rib chiqiladi. Ustoz-shogird an'anasi va hunarmandchilik merosining davomiyligi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot milliy pichoqchilik san'atining tarixiy va madaniy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются виды и отличительные особенности национальных ножей, характерных для школ ножевого ремесла Чуст и Шахрихан. Анализируются форма, строение клинка и декоративные особенности ножей, изготавливаемых мастерами этих регионов. Подробно освещаются острота и простота чустских ножей, а также декоративность и прочность шахриханских изделий. Описываются процессы ковки, закалки, заточки клинка и украшения рукояти. Кроме того, рассматриваются бытовые и сувенирные виды ножей. Особое внимание уделяется традиции «устоз-шогирд» и преемственности ремесленного наследия. Исследование направлено на раскрытие исторического и культурного значения узбекского национального ножевого искусства.*

***Abstract:** This article discusses the types and distinctive features of traditional knives characteristic of the knife-making schools of Chust and Shahrikhon. It analyzes the shape, blade structure, and decorative styles of knives produced by craftsmen of both regions. The sharpness and simplicity of Chust knives, as well as the ornamental design and durability of Shahrikhon knives, are described in detail. The processes of blade forging, heat treatment, sharpening, and handle decoration are also examined. In addition, the article considers household and souvenir types of knives. Special attention is given to the master-apprentice tradition and the continuity of craftsmanship heritage. The study aims to reveal the historical and cultural significance of Uzbek national knife-making art.*

***Kalit so'zlar:** To'g'ri pichoq, qayqi pichoq, bodomcha pichoq, sodda pichoq, guldor pichoq, chilmixagulli pichoq, rufta pichoq, yog'och sopli, suyak sopli, shoxdastali, dandon sopli, o'n uch sadafli, o'n besh sadafli pichoq.*

***Ключевые слова:** Прямой нож, изогнутый нож, нож «бодомча», простой нож, узорчатый нож, нож с орнаментом «чилмих», нож «руфта», с деревянной рукоятью, с костяной рукоятью, с роговой рукоятью, с зубчатой рукоятью, нож с тринадцатью перламутровыми вставками, нож с пятнадцатью перламутровыми вставками.*

***Keywords:** Straight knife, curved knife, almond knife, plain knife, flower knife, chilmihagul knife, rufta knife, wooden handle, bone handle, horn handle, serrated handle, thirteen-blade blade, fifteen-blade blade.*

Kirish. Mamlakatimizda 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari mavjud. Ushbu xududlarda yasalgan pichoqlar o'zining ishlash texnologiyasi, yasalish usuli,shakli, katta-kichikligi va

bezaklari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, yasalish usuliga qarab chust pichog‘i, qorasuv pichog‘i, shahrixon pichog‘i, qo‘qon pichog‘i, xiva pichog‘i kabilarga bo‘lingan. Ushbu xunarmandchilik markazlarining pichoq yasashda etnoxududiy xususiyatga ega o‘ziga xos a’nanaviy usullari avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Chunki pichoq o‘zbek oilalarida kesuvchi asbob sifatidagina ishlatilmay, balki butun mintaqada erkaklarning eng zarur ish quroli va hatto sarpo bezagi sifatida ham xizmat qilib kelgan. Bu o‘z navbatida pichoqning tashqi ko‘rinishini yanada chiroyli bezalishiga hamda uning nozik naqshli san’at sohasiga ko‘tarilishga xizmat qilgan.

Usullar. Eng yaxshi pichoqlar O‘zbekistonning ikkita qadimiy shaharlari – Chust (Namangan viloyati) va Shahrixon (Andijon viloyati)da tayyorlanadi. Chust va Shaxrixon pichoqlari afsonaviy hisoblanib, ularning pishiqligi va go‘zalligi sababli boshqa hududdagi pichoqlardan ajralib turadi. Ushbu hududdagi pichoqlar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda kollesionerlar va oshpaz va qassoblar tomonidan yuqori baholanadi[1].

Bugungi kunda Chust va Shahrikhon pichoqchilik maktabi ustalari tomonidan eng ko‘p tayyorlanayotgan pichoq turlari qatoriga “to‘g‘ri pichoq”, “tol bargi”, “qayqi”, “qozoqi (qozoqcha)”, “hisori pichoq” hamda “bodomcha pichoq” kiradi. Har bir tur o‘zining tig‘ shakli, og‘irlik muvozanati va foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi. Masalan, to‘g‘ri pichoq kundalik maishiy ishlarda keng qo‘llansa, qayqi va tol bargi shaklidagi pichoqlar kesish jarayonida yengillik va aniqlikni ta’minlaydi. Qozoqcha va hisori pichoqlar esa tig‘ining kengroq va baquvvatligi bilan e’tiborga sazovor bo‘lib, ko‘proq go‘sht mahsulotlarini tayyorlashda ishlatiladi. Bodomcha pichoq esa ixchamligi va nafis ko‘rinishi bilan ajralib turadi.

Mazkur pichoqlarga bo‘lgan talab xalq orasida yuqori bo‘lib, ular nafaqat oshxona va ro‘zg‘or buyumi, balki milliy qadriyat va sovg‘abop buyum sifatida ham qadrlanadi. Ayniqsa, qo‘lda yasalgan, sifatli po‘latdan tayyorlangan va milliy naqshlar bilan bezatilgan pichoqlar hunarmandchilik mahsuloti sifatida bozorda alohida o‘rin egallaydi. Bu esa o‘z navbatida an’anaviy pichoqchilik san’atining bugungi kunda ham barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. [2].

Taxlil va natijalar. Pichoq tuzilishiga ko‘ra to‘g‘ri pichoq, qayqi pichoq, bodomcha pichoq, xajmiga ko‘ra o‘rtasuyamlik, kezlik, bolapichoq, chalabuzar,bezatilishiga ko‘ra sodda pichoq, guldor pichoq, chilmixagulli pichoq, rufta pichoq, dastasining tuzilishiga ko‘ra, yog‘och sopli, suyak sopli, shoxdastali, dandon sopli, o‘n uch sadafli, o‘n besh sadafli, yasalish usuliga ko‘ra Chust pichoq, Qorasuv pichoq, Shahrixon pichoq, Buxorcha pichoq, Poyto‘g‘ pichoq, Quqon pichoq deb yuritiladi. Ishlatilishiga ko‘ra ro‘zg‘or pichoqlari, qassob, bog‘dorchilik, kosibchilik pichoqlari va boshqalarda turlari xam bor. Chust va Shaxrixonda eng ko‘p tayyorlanadigan pichoq pichoq turlariga to‘htalib o‘tsak. Jumladan: To‘g‘ri pichoq qadimdan ishlatilib kelinayotgan pichoq turi bo‘lib, pichoq-chilikda pichoq tig‘ining uchi qayrilmay to‘g‘ri chiqqan bo‘ladi[3]. Shuning uchun Marg‘ilonda to‘g‘ri pichoq deb yuritiladi. Asakada bu pichoqni ribak, Namanganda esa to‘g‘ri pichoq yoki hanjar nusxa deb ataladi. Eng ko‘p uchraydigan pichoq turlaridan qaychi pichoq tig‘ning uchi orqasiga ozgina qayrilgan bo‘ladi. Uni qilichak pichoq hamda chaqmoqi pichoq deb ham yuritiladi. Bodomcha pichoq uning orqa qirrasi uchidan taxminan 4-5 smcha joyi ichiga kamalak bo‘lib kirgan bo‘ladi. Ko‘qonda qozoqcha, Marg‘ilonda qozoqi, Namanganda bodomcha va qozoqcha deb yuritiladi. O‘rtasuyam pichoq pichoq turlaridan biri bo‘lib,tig‘ining uzunligi o‘rtacha suyamda[4] bir suyam keladigan pichoqdir. Kezlik pichoq pichoqchilikda bolalar uchun moslab yasalgan pichoq. Uni bola pichoq va to‘g‘ri pichoq deb yuritiladi. Bunday pichoqlar qiz to‘yida kelinning ukasi yoki jiyaniga kuyov tomonidan sovg‘a sifatida berilgan. Bu odat hozirga qadar saqlanib qolgan bo‘lib, milliy an’ana sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Chalabuzar pichog‘ining tig‘i bo‘g‘zidan qayrilib, dastasiga yopilgan bo‘ladi. Bu pichoqni qadimda qinga solib belda osib yurilgan. Uni yana kallabuzar, Cho‘stda chalaavzal pichoq deb yuritadilar. Bunday pichoqlar asosan qassobchilikda qo‘llanilgan[5].

Bundan tashqari Chust va Shaxrixonda mashxur pichoqlardan biri mardona pichoq sanaladi. Mardona pichoq pichoqsozlar kishilarni yoshiga qarab har xil tayyorlanadigan pichoq sanaladi. Katta yoshdagi kishilar uchun ishlangan pichoqlarni “mardona pichoq” deb yuritilgan. U

turli-tuman ko‘rinishga ega bo‘lib, o‘ziga xos tarzda qilib bezatiladi. Tig‘i po‘latdan yasaladi. Sodda pichoq qadimdan uy-ro‘zg‘or ishlarida ishlatiladigan oddiy pichoq. Unga xech qanday gul yoki naqsh solinmagan, hashamsiz bo‘ladi.U juda ko‘p ishlatiladi. Ushbu pichoq turini deyarli har bir xonadonda ko‘rish mumkin. Guldor pichoq pichoqchilikda gulli pichoq deb ham yuritiladi. Uning dasta hamda gul-bandiga naqshlar solingan, chiroyli pichoq. Chilmixgulli pichoq (qirqmix gulli pichoq) pichoqchilikda pichoq turlaridan biri bo‘lib, uni chilmixa pichoq deb ham yuritiladi. Uning dastasiga chilmixlar qoqib, guldor qilib yasalgan pichoq bo‘lib, u qadimdan ishlatilib kelinadi. Ro‘fta pichoq tig‘ining yuzi sidirg‘asiga charxlangan bo‘ladi. Ro‘fta tojikcha ro‘fta, ya’ni sidirilgan ma’nosini anglatadi. Bu pichoqning yuziga zok (achchiqtosh) surtiladi[6] va ishlatib o‘tmas qilinsa, o‘tkirlash uchun charhlanmay qayroqlanadi. Marg‘ilonda qayroqi lekin charxlanadigan turki charhi deb yuritiladi. Qo‘qonda bu pichoqni ro‘fta deb yuritiladi. Ro‘ftani pichoqlarni dami charxlanmaydi balki qayroqtosh bilan tig‘i o‘tkirlanadi. Yog‘och sopli pichoq yog‘och suqmasopli, yog‘och sopli pichoq deb ham yuritiladi. Suqmasi yog‘ochdan ishlangan pichoq turi. Bunday pichoqlar ro‘zg‘or pichoq deb ham nomlanadai. Asosan oshxona ishlarida foydalaniladi. Shoadastali pichoq uni shoxa, mug‘uz, mug‘uz dastali pichoq deb ham yuritiladi. Bu pichoqni dastasi hayvon shoxlaridan yasalgan bo‘ladi. Eng xaridorgir pichoq turlaridan xisoblanadi. Dandon sopli pichoq bunday pichoqning sopi filning tishi va suyagidan tayyorlanadi. Bunday pichoqlarni narxi qimmat bo‘lgan. Dandon sopli pichoq qadimda ilohiy hisoblanib, kishini yomonlikdan asrashda ahamiyatga ega bo‘lgan. Odamlar bu pichoqning dastasini ushlaganlarida ilon chaqishidan, ayollarni esa farzandsizlikdan asraydi deb ishonganlar. O‘n uch sadafli pichoq bunday pichoq dastasiga o‘n uch dona sadaf ko‘z solingan. Shuning uchun bu pichoqni un uch sadafli pichoq deb yuritiladi. Xuddi shuningdek o‘n uch sadafli pichoq dastasiga sadafdan o‘n besh dona gul solingan bo‘ladi[7].

Pichoq dastasi bezatilishiga ko‘ra ham bir nechta turlarga bo‘linadi. Jumladan, chalabuzar (tig‘i bo‘g‘zidan qayrilib, dastasi yopiladigan), mardona (kashtachilarga mo‘ljallangan), sodda (uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan), guldor (dastasiga naqsh solingan), chilmixi gulli (dastasiga chilmix qoqib, guldor qilib yasalgan), rufta (tig‘ining yuzi sidirg‘asiga charxlangan) kabi turlari mavjud.

Shahrixonda eng ko‘p tayyorlanadigan pichoq turlaridan biri “qozoqi pichoq” sanaladi. Bunda pichoq tig‘ining orqa qirrasi uchidan 4-5 sm qismi ichiga tomon kamalak bo‘lib kirgan bo‘ladi. Qo‘qon, Shahrixon pichoqchilari ushbu pichoqni “qozoqi pichoq” deb yuritishadi. Namangan va Chustda ushbu pichoq turi “bodomcha pichoq” deb yuritiladi[8].

Shahrixon hunarmandlari tomonidan tayyorlanadigan pichoqlar Chust pichoqchilik markazlarida ishlab chiqariladigan namunalaridan, avvalo, tig‘ining o‘tkirligi, metallning puxta ishlov berilgani hamda umumiy vaznining nisbatan yengilligi bilan farqlanadi. Shahrixon maktabiga xos konstruktiv yechimga ko‘ra, pichoqning umumiy tuzilmasida tig‘ qismi ustunlik qiladi va buyumning qariyb 90 foizini tashkil etadi. Bunday nisbat pichoqning funksional samaradorligini oshirish, kesish jarayonida muvozanatni ta’minlash hamda ishlov berish qulayligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologik yondashuvning asosiy maqsadi tig‘ning uzoq muddatli foydalanish jarayonida deformatsiyaga uchramasligini ta’minlash va keyinchalik dam (tig‘ning kesuvchi qismi) qalinlashgan taqdirda uni qayta charxlash jarayonini yengillashtirishdan iborat. Tig‘ning kengroq va nisbatan yupqaroq ishlanishi metall qatlamining bir tekis sayqallanishiga, charxlash paytida ortiqcha metall yo‘qotilishining kamayishiga hamda pichoqning dastlabki kesish xususiyatlarini tezda tiklash imkonini beradi. Shu jihatdan, Shahrixon pichoqlarining konstruktiv tuzilishi nafaqat estetik, balki amaliy va texnologik jihatdan ham puxta o‘ylanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Chust va Shahrixon pichoqchilik maktablari o‘zining boy tarixiy an’analari, yuksak mahorati va o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har ikki hududda yaratiladigan milliy pichoqlar tig‘ining pishiqligi, o‘tkirligi, shakliy yechimi hamda dastasidagi bezak elementlari bilan bir-biridan farqlanadi. Chust pichoqlariga xos soddalik

va o‘tkirlik, Shahrixon pichoqlariga xos nafis bezak va mustahkamlik milliy hunarmandchilikning yuksak darajasini namoyon etadi.

Shuningdek, ustoz-shogird an’anasi asosida shakllangan tajriba va ko‘nikmalar avloddan-avlodga o‘tib, pichoqchilik san’atining uzluksiz rivojlanishini ta’minlab kelmoqda. Milliy pichoqlar nafaqat maishiy buyum, balki xalqning madaniy merosi, estetik didi va tarixiy qadriyatlarini ifodalovchi muhim san’at namunasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Esonov Z. Farg‘ona vodiysida pichoq tayyorlash hunarmandchiligi an’analari // O‘tmishga nazar №7, 2019. – B. 43.
2. Ibroximov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi (2-3 qism). –Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. – B. 115.
3. Nosirova Z. Farg‘ona vodiysi badiiy hunarmandchiligi // Moziydan sado, 2014, № 2. (62) – B. 20-21.
4. Izox: O‘zbek tili leksikologiyasi – T:Fan, 1981. – B.69 (Suyam xajm o‘lchoq birligi)
5. Dala yozuvlari Namangan viloyati Chust tumani 2022 yil, Andijon viloyati Shaxrixon tumani 2023 yil.
6. Sverchkov L. M., Papaxristu O. A. Tradisiya masterov-nojeщikov Sredney Azii // ONU. – 1990. – №7. – S. 47
7. Dala yozuvlari Namangan viloyati Chust tumani Chust shaxri 2022 yil.
8. Dala yozuvlari Andijon viloyati Shaxrixon tumani 2022 yil.